

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 9 383,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 9 394,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,8 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2019-yilning yanvar- martiga nisbatan % da
	2019-yil yanvar- mart	2020-yil yanvar- mart	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	7 214,5	9 383,2	103,7
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 945,0	9 230,2	103,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	269,5	153,0	103,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 945,0	9 230,2	103,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	619,6	802,4	103,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 382,5	7 278,5	103,6
sanoat	5 148,4	6 975,9	103,5
qurilish	234,1	302,6	108,0
Xizmatlar	942,9	1 149,3	103,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	245,6	281,8	103,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	150,1	170,3	103,9
boshqa xizmat tarmoqlari	547,2	697,2	103,8

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat - 103,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 75,6 %), qurilish - 108,0 % (3,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i – 103,8 % (8,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 103,9 % (1,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,1 % (3,1 %) va boshqa xizmat tarmoqlari – 103,8 % (7,5 %) ni tashkil etdi.

**2020 – yilning yanvar-mart oylarida
YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)ning YaHM tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 1,4 % punktga koʻpaydi va hisobot davrida 78,9 % ni tashkil etdi. Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining YaHM tarkibidagi ulushi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 8,7 % ni tashkil etdi va 2019-yilning mos davri (8,9 %) bilan taqqoslaganda 0,2 % punktga kamaydi. Xizmatlar sohasining ulushi 12,4 % ni tashkil etdi va 2019-yilning mos davri (13,6 %) bilan taqqoslaganda 1,2 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati
- Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
- Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 3,1 % (2019-yilning yanvar-mart oylarida – 3,5 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 1,8 % (2,2 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari – 7,5 % (7,9 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari